ONA TILI DARSLARIDA IMLOVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7976717

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limini imloviy savodxonlikni oshirish yuzasidan isloh qilish va rivojlantirish, turli xil chora-tadbirlar amaliyoti kuchga kirgan bir davrida ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish borasida fikr va mulohazalar mavjud. Xususan, ona tili darslarida imloviy savodxonligini oshirishning o'ziga xos usullari ham katta bir ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda, o'quvchi-yoshlarning pedagogik bilim salohiyatlarini oshirish yuzasidan ta'lim ishini tashkil etishga muvofiq tarzda savodxonlikni oshirishning turli xil usul va metodlari tavsiya etilgan.

Kalit so'z: Imloviy savodxonlik, yozma nutq shakllari, qisqartma so'zlar, she'riyat imlosi, bo'g'in ko'chirish, kirish so'zlar

O'quvchi-yoshlarning yosh xususiyati va fiziologik xatti-harakatlariga kelib chiqqan holatda turli xil dasturlari uyinlar va metodlarga tayyorga holatda smalga oshirish yaxshi samaralarni beradi. Ona tili darslarida mavzular ko'lami va ularning ifodaliligiga ko'ra mashqlar, mustaqil ishlar, nazorat ishlari hamda imloviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan matnlar ustida ishlash yuzasidan ham turli xil usullarining ifodaviyligini ko'rish mumkin. Maktab o'quvchilari orasida asosan, harflarning imloviy jihatdan to'g'ri yozilishi, bosh harflar imlosi yoki bugun ko'chirish qoidalari gaplarda punktuatsion xatolar, imloviy xatolarga duch keladi. Maktab o'quvchilarining tinish belgilari bilan bevosita bog'liqlikda hatolarini to'g'irlash yuzasidan ularga tushuncha berish va to'g'ri ma'lumotlarni ularning ongida saqlab qolish yuzasidan axborot texnologiyalari bilan foydalanish ham yaxshi samaradorlikni berishi bilan kunda ta'lim ishida katta bir muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. "Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo'lib, u tildagi o'zak-negiz va qo'shimchalarni yagona tarzda to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956 yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi boo'limlarni o'z ichiga oladi: 1. Ayrim harflar imlosi; 2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi; 3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi; 4. Bo'g'in ko'chirilishi; 5. Bosh harflarning yozilishi".[1]

Bo'g'in ko'chirish texnologiyasi. Bo'g'in ko'chirish texnologiyasida o'quvchilar so'zlarning o'zaro, bir-biri bilan bog'lanishi va bugun ko'chirish qoidalarining satrma-satr tarzda amalga oshirishida ularning tog'ri amaliyotini ta'minlashlari lozim. Ko'p holatlarda bir bo'g'inli yoki uch bo'g'inli, to'rt bo'g'inli so'zlar bilan ishlash, ularning undoshlar va unlilar bilan tugagan aksariyat qismlarining bir satridan ikkinchi satrga o'tishlarida imloviy xatoliklarga fuch kelinadi. Shuningdek, harflar imlosida grafik xavflarning to'g'ri yozilmasligi, yoki x va h harflarning almashinib qolishi tarzdagi xatolar kelib chiqadi. Ona tili darslarida tovush tushishi, tovush ortishi, tovush o'zgarishi kabi punktuatsion, imloviy xatoliklardan tashqari ya'ni manashunday holatlar ham kuzatiladi. Bunda, o'quvchilar o'zaro, so'zlashning mohiyatidan kelib chiqqan holda, vaziyatdan kelib chiqib, to'g'ri ta'minlanishi, baholashlari lozim. Misol uchun: Shahar so'zining shahri so'ziga, burun so'zining burni so'zi o'zgarishlarga uchrab harflarning imlosi o'zgaradi. Mana shunday so'z shakllari o'zgarganda so'ng ularning yozilishi qismida, texnologiyasida ham o'zgarish paydo boladi. Maktab oquvchilari esa ularni

anglagan holatda yaxshi samaradorlik yuzaga keltirish uchun to‘g‘ri muqobil, aniq variantlardan foydalanishlari lozim. Shuningdek, ona tili darslarida bosh harflar bilan yozilishi lozim bo‘lgan so‘zlar va birikmalar mavjud bo‘lib, ushbu mavzular yuzasidan qo‘lanuvchi bilimlarning strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. “O‘zbek tilining lotin grafikasi asosidagi (1995-y. da qabul qilingan) alifbosi bo‘yicha asosiy imlo kridalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-y. 24 avg. karori b-n qabul qilingan”.[2]

O‘zbekiston respublikasiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi so‘zlar bosh harflar bilan yoziladi, shuningdek bosh harflar bilan yozish imlosida qisqartirib yozish yoki bo‘g‘inlarni qisqartirib yozish kabi namunalar keltiriladi. Misol uchun: AQSH, O‘z.dav.nashr. O‘quvchilarga imloviy savodxonlik mana shunday holatlarda katta bir yordam beradi. Ularning aksariyati holatlarida hayvonlar, o‘simliklar, qushlar yoki bo‘lmasa hashorat dunyosiga berilgan nomlari bilan tanishish, ularning qanday ma’no ixohlashiga ko‘ra yozilish prinsiplari qoidalarini ham ifodalash lozim. Ona tili darslarida noviy savodxonligini oshirishning o‘ziga xos usullari yuzasidan she’riy tizimlarni ham e’tiborga olish lozim. She’riy tizimlarning, imloviy savodxonligini oshirishda bir qancha shamiyati katta bo‘lib, so‘zlarning badiiy jihatdan qo‘llanishi she’riyatda katta bir o‘rinni tashkil etadi.

Yozma nutq bilan she’riy shakllarning ifodalanishi o‘rtasida o‘zaro komplementli aloqalarning mavjud ekanligi tayangan holatda she’riy shakllar nisbatan boshqacha nutqiy matnlari og‘zaki yoki yozma tarzda tashkil etilgan matnlar boshqa uslubda ekanligi bilan farq qilinadi. Yozma nutqni biz kirish so‘zlar bilan ifodalanishimiz mumkin. Ular: Birinchidan, ikkinchidan, haqiqatdan ham, shuningdek kabi. She’riy shakllarida esa biz kirish so‘zlaridan foydalanmaymiz, aksincha, so‘zlarning sinonimlari, antonimlari yoki inversion holatlardan so‘z tarkiblarning o‘zgarishlaridan foydalangan holatda ifodalaymiz. Har qanday matn, she’riy yoki nasriy albatta, to‘g‘ri ifodalanishi, imloviy qoidalarga, savodxonlik darajasiga ko‘ra ifodalanishi mumkin ekanligi o‘ziga xos prinsipial vazifani bajarishi kerak. Imloviy savodxonlikni oshirish maktab ta’limining ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili o‘qitish yuzasidan maktab darsliklaridan ham ko‘zlangan maqsad aslida shu bo‘lib, mashqlar va ularning ifodaliligi, uyga beriladigan topshiriqlarning amaliyoti ham xuddi mana shunday holatlarda ko‘rib chiqiladi. Bunda, asosan, so‘zlar, iboralar yoki qo‘shma gaplar tarkibida keluvchi so‘z birikmalari va shu kabi tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan elementlardan foydalanish o‘ziga xos bo‘lib xizmat qiladi va o‘quvchi yoshlarning savodxonligini oshirishda katta ustuvorliklarni belgilab beradi.

References:

1. ORFOGRAFIYA (IMLO) O’ZBEK IMLOSI VA UNING ASOSIY TAMOILLARI https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13243-orfografiya-imlo-o-zbek-imlosi-va-uning-asosiy-tamoillari
2. IMLO https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/imlo/